

Kafedrada amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar institut rektorining 28-iyul 2017-yilda tasdiqlangan 2017-2018 o'quv yili davomida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi asosida olib borildi.

2017-yil guruh murabbiylari tomonidan ustozlik qilayotgan guruhlarda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning porloq xotirasiga bag'ishlangan "Xotira darslari", hamda Davlatimiz mustaqilligining 26 yilligi munosabati bilan barcha guruhlarda "Fidoying bo'lgaymiz seni O'zbekiston!" shiori ostida mustaqillik darslari o'tkazildi. Kafedra professor-o'qituvchilari institutimizning 80-yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda ishtirok etdi.







Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" shiori ostida har yili "Kitob bayrami" tadbirlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Aytish joizki, ushbu ma'naviy-ma'rifiy tadbir davlatimiz tomonidan adabiyotni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor va erishilayotgan natijalarni keng jamoatchilikka etkazish, xalqimiz, jumladan, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ijodkorlar va kitobxonlar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash, kitobga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplashda o'z samaralarini bermoqda.

Kafedra xodimlari ham institutimiz kutubxonasini kitob bilan boyitish maqsadida kafedra nomidan badiiy asarlarni taqdim etdilar.

Kafedra professor o'qituvchilari tomonidan kafedradagi faxriy o'qituvchi va xodimlarni doimo ardoqlab, ularni tavallud ayyomlari bilan qutlab boradilar.



Kafedrada uzoq yillardan beri faoliyat olib borayotgan prof Z.A.Nazarovani ustoz sifatida ularni bilim va tinimsiz mehnatlari orqali erishilgan yutuqlari haqida talabalar bilan uchrashuv tashkil qilindi.

Uchrashuvda Z.A.Nazarova o'zining kafedradagi ilmiy izlanishlari haqida gapirib berdi. 1989-2003 yillarda ushbu kafedraga mudirlik qildi. 1996-yil doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Z.A.Nazarova tomonidan 150 dan ortiq ilmiy maqolalar, 10 ta dastlabki patent, ijobiy ixtirolar, 9 ta VFMLari, 2 ta darslik va 40ga yaqin uslubiy qo'llanmalar chop etilgan.

8-mart Xalqaro xotir qizlar bayrami munosabati bilan o'tkazilgan bayram tadbirida kafedra professor-o'qituvchilar ishtirok etdilar.





“Obodlik ko'ngildan boshlanadi”, “O'quv dargohimizni ma'naviyat va ma'rifat o'chog'iga aylantirishda mening hissam” shiori ostida talabalarning o'quv binolari va talabalar turar joylari hududlarini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, gulzor yaratish, daraxtlarni parvarish qilish va hasharlarga jalb qilish ishlarida faol ishtiroki ta'minlash maqsadida kafedra xodimlari Botanika bog'idagi hasharda ishtirok etdilar.





Kafedra professor-o'qituvchilari "Abu Ali ibn Sinoning farmatsiya rivojiga qo'shgan hissasi" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanda qatnashib, ma'ruza qildilar



*«Abu Ali Ibn Sinon  
farmatsiya rivojig  
qo'shgan hissasi  
mavzusidagi  
ilmiy-amaliy  
anjuman*



9-May Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda kafedra xodimlari faol ishtirok etdilar. Kafedrada nafaqaga chiqqan faxriy ustozlar bilan uchrashuv va bayram tadbiri tashkil qilindi, ularga institutimiz tomonidan esdalik sovg'alari berilib, bir piyola choy ustida suhbat qurildi.







TTJ

DTT kafedrası 2017-2018 o'quv yilida "Talabalar turar joyida" 2017 yil 28 avgustda kafedraning 1-sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan reja asosida ish olib bordi.

Kafedraga "Talabalar turar joyi"dan 31-40 xonalar birlashtirilgan bo'lib, talabalar ro'yxati tuzib chiqildi.

Sentyabr oyida DTT kafedra mudiri, farm.f.d. Yo.S.Karieva, kafedra professor o'qituvchilari va talabalar bilan O'zbekiston Mustaqilligining 26 yilligi munosabati bilan erishilgan yutuqlar haqida suhbat o'tkazildi. Mustaqillik – buyuk huquq. Undan foydalanmagan, uni mustahkamlashga harakat qilmagan xalq mustaqillikka munosib emas. Ilg'or axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, xususan mobil telefonlari "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" yorlig'i bilan xaridorlar qo'lga etib bormoqda. Muzlatkich, sovutkich, konditsioner, changyutgich, mebel jihozlari yoki qurilish materiallari tayyorlaydigan korxonalarimizni aytmaydiganmi? Xo'sh ushbu korxonalarni yuksak texnologiya va bilimdonlik va mahorat bilan kim boshqarayapti? Albatta mustaqillik yillarida tug'ilib o'sgan, bugun ikki-

uchta xorijiy tilda bemalol so'zlasha oladigan, qalbida shu aziz Vatanga mehr-muhabbati kuchli bo'lgan o'g'il-qizlarimiz boshqarmoqda. Bular ham mustaqiligimizning ulug' ne'mat va yutuqlari va ulardan biz fahrlanamiz.

Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan yoshlarni har tomonlama barkamol voyaga etkazishga yo'naltirilgan aniq strategiya hayotga tatbiq etildi. Pirovardida soha tubdan yangilanib, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi mustahkam tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnik hamda kadrlar bazasiga ega ta'lim-tarbiya infratuzilmasi yaratildi. Bunda, xususan, 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich hamda tadrijiy rivojlanish printsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlar "o'zbek modeli"ning ajralmas tarkibiy qismi sifatida katta muvaffaqiyatlar omili bo'ldi. Prezidentimizning zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish, yosh avlodni chet tillarga o'qitish, etuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlarning xalqaro hamkorlik hamda muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqqani bilan ahamiyatlidir.

Oktyabr oyida DTT kafedrasida dotsenti, farm.f.d. Sh.F.Iskandarova va kafedra professor o'qituvchilari va talabalar bilan birgalikda 1-oktyabr "Ustoz va murabbiylar kuni" ga bag'ishlab "Ustozlarni qadrlaymiz" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi. Ustoz deganda, har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat – ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o'lchab va ado qilib bo'lmaydigan qarzdorlik xissi paydo bo'ladi. Ustozlarimiz o'giti, keksalarimiz pand-nasihatlariga amal qilib borsak, aslo kam bo'lmaymiz. Bu bilan ustoz va murabbiylarimiz oldidagi ilk burchimizni ado etgan bo'lamiz. "Ustozning umri – mangu, chunki shogirdlar umri unga ulanadi", – deydi. Ha, juda ham to'g'ri fikr. Muallim – ustoz shunday mo'tabar zotki, uning nomi ham, umri ham hamisha boqiydir. Ustoz va murabbiy! Biz barchamiz yoshimiz, kasbu korimizdan qat'iy nazar, bu so'zlarni eshitganimizda ko'nglimizdan faqat iliq fikrlar yorqin xotiralar o'tadi. Shu tobda ko'z o'ngimizda qo'limizga qalam tutqazib, endigina ilm olamiga etaklagan birinchi ustoz-muallim, qiynalib turganimizda masalaning tugunini echishga yordam qilgan, birgin shu amali bilan umr bo'yi yodimizda qolgan kishi gavdalanadi.







Noyabr oyida DTT kafedra assistenti N.S.Abduxalilova va kafedra professor o'qituvchilari va talabalar bilan birgalikda obod turmushimiz, farovon hayotimizning o'ziga xos jihatlari haqida suhbat o'tkildi. Avvalo obodlik ko'ngildan boshlanadi. Imoni but, qalbi pok, luqmasi halol, rahnamosi to'g'rilik, niyati ezgulik bo'lgan inson ko'ngli obod bo'lib, u ko'ngillardan ko'ngillarga ko'chadi. "Obodlik" tushunchasi keng qanot yozib, ko'ngildan oilaga, so'ng mahalla, yurtga tarqaydi. Obodlikning aksini totuv, ibratli oilalar misolida ko'rish fikrimizning asosidir. Ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga, otalardan farzandlarga, vorislarga o'tib kelayotgan va dunyoning har bir burchagida takrorlanmaydigan ajoyib munosabatlarning, insoniy fazilatlarining asosiy qonunimizdan o'rin egallaganligi tahsinga sazovordir.

Mamlakatimizning barcha shahar va qishloqlarida zamonaviy sport inshootlari barpo etilib, xalqaro andozalar darajasida jihozlanib, millionlab yoshlarimizning ko'plab sport turlari bilan muntazam shug'ullanishiga imkoniyat yaratilmoqda.

Turmushimizning obod va farovonligini oshirish mezonlarini hayot tarzimizga aylantirish uchun katta-katta ishlarni hamjihatlikda amalga oshirilishi lozim. Yurtimizdagi obodliklarni ko'rib ko'ngil yayraydi.

Noyabr oyida DTT kafedrasida prof. Z.A. Nazarova, dots. G.M. Tureeva, ass. N.A. Azimovalar talabalar turar joyining kafedraga biriktirilgan xonalarda yashovchi talabalar bilan "Institutda sog'lom turmush tarzi –yuksak ta'lim tarbiya asosi» mavzusida davra suhbat o'tkazildi.



7-dekabr 2017-yilda assistent F.X. Maksudova talabalar turar joyidagi 31-40 xonalarda yashovchi talabalar bilan 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlab "Konstitutsiya haftaligi" tadbirlarini o'tkazish bo'yicha davra suhbatlarini o'tkazdi. Suhbatda kafedra xodimlari va talabalar qatnashdilar.





Mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini ta'minlash, tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik va mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish va aholi farovonligini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishda Bosh qomusimiz muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotgani ta'kidlandi. Konstitutsiyamiz avvalo, erkinligimiz, mustaqil va ozodligimiz kafolatidir. O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolar millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, teng huquqli ekani Bosh qomusimizda belgilab qo'yilgan. Har kim ta'lim olish, ishlash, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Konstitutsiyamizning 25 yilligi oldidan korxonatashkilotlar, mahallalar va ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan tadbirlarda aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar faol ishtirok etmoqda.

Dekabr oyida assistent N.Sh.Radjapova, kafedra professor o'qituvchilari va talabalar bilan birgalikda xonalarning tozalik holatini tekshirib "Giyohvandlik, alkogolizm, tamaki chekishning zararli oqibatlari hamda 24 dekabr kuni Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga saylov bo'lib o'tishi xaqida suhbat o'tkazdi. U o'z so'zida Butun dunyo jamoatchiligi va meditsina xodimlari aholi o'rtasida giyohvandlikning tobora ko'payib ketayotganidan tashvishga tushmoqda. Giyohvandlik (narkomaniya) qadimdan ma'lum illat. Giyohvandlik inson va jamiyat uchun naqadar mudhish va og'ir bo'lgan davr. Ming afsuslar bo'lsinkim, bugungi kunda giyohvanlik dardiga chalinadiganlarning soni tobora oshib bormoqda. Giyohvand moddalar jamiyatimizni parchalab tashlamoqda, kelajagimiz bo'lgan yoshlarimizni nobud qilmoqda.

Bizning O'zbekistonda ham butun jahon og'ir davri bo'lib hisoblangan giyohvandlikka qarshi olib borilayotgan ishlar to'g'risida davlat miqyosida mutasaddi rahbarlar va nodavlat tashkilotlarning vakillari uzliksiz ravishda radio, televidenie va axborot vositalari orqali chiqishlar qildilar va butun xalqqa murojaat qilib, shunga qarshi qo'lni-qo'lga berib kurashishga chorladilar. Ha, haqiqatdan ham giyohvandlik bo'yicha ahvol jiddiylashib bormoqda. Ayniqsa, giyohvandlik yoshlar o'rtasida ko'payishi va bu og'ir dardga ayrim o'smirlarni, maktab o'quvchilarining qo'shilib qolishlari nafaqat ularning otalarini, yaqinlarini, qavmi-qarindoshlarini, shu bilan bir qatorda jamiyatimizni, davlatimiz rahbarini

tashvishga solmoqda. Ayniqsa, bu borada oramizda yashayotgan giyohvandlar jamiyat uchun, katta ijtimoiy xavf tug'dirishlari sir emas.



Masalan, giyohvandlar turli zararli kuchga ega bo'lgan giyohvand moddalarni qon tomirlariga yuborishlari natijasida «kayfiyatlari o'zgarib» turli maqsadlarda jinoiy ishlarni sodir qiladilar, xalqimizga va davlatimizga iqtisodiy talofatlar keltiradilar. Shular bilan bir qatorda giyohvandlar o'z organizmlarini doimiy zaharlashlari tufayli, ayrim hollarda esa me'yoridan ko'proq giyohvand moddalarni organizmiga yuborib qo'yishlari sababli o'lim holatlari ko'plab qayd etilmoqda. Bulardan tashqari, giyohvandlar nosteril holda tayyorlangan narkotik moddalarni sterillanmagan shprits, ignalardan guruh-guruh bo'lib foydalanishlari tufayli ularda SPID, gepatit B va S kasalliklari qo'zg'atuvchilarining bir-birlariga yuqtirib olish holatlari ko'plab sodir bo'lmoqda.

Yanvar oyida DTT kafedrasida dotsenti N.M.Rizaeva va kafedra mudiri, f.f.d. Yo.S.Karieva, kafedra professor o'qituvchilari va talabalar turar joyidagi 31-40 xonalarda yashovchi talabalar bilan "14-yanvar Vatan himoyachilari kuni" va "Keksalarni e'zozlash xalqimizga xos fazilat" mavzusida suhbat o'tkazildi.

1991-yil 6-sentyabr sanasi – Vatanimiz mustaqillik solnomasiga unutilmas kun bo'lib muhrlandi. Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi. 1992-yil 14-yanvar kuni esa mustaqil davlatimiz hududidagi barcha tarkibiy qism va bo'linmalarni O'zbekiston tasarrufiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan e'lon qilingan mazkur hujjat mamlakatimiz xavfsizligiga tahdid solish mumkin bo'lgan va mintaqada kelib chiqayotgan xavf-xatarlarni har tomonlama hal etish asosida, armiyamizning isloh qilishning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqilishiga keng yo'l ochildi.



Shu bois har yili 14 –yanvar Vatan himoyachilari kuni bayrami sifatida mamlakatimiz bo'ylab katta tantana qilinadi.

DTT kafedrasini mudiri, farm.f.d. Yo.S.Kariyeva, kafedra professor o'qituvchilari va talabalar "Keksalarni e'zozlash xalqimizga xos fazilat" mavzusida suhbatni davom ettirib, qariyalarga g'amxo'rlik qilish ma'naviy hayotimizning ajralmas qismiga, sodda qilib aytganda, xalqimizga xos yuksak fazilatlardan biriga aylanganligi haqida gapirildi.

"Keksalarni e'zozlash yili" davlat dasturi ijrosi doirasida 7,7 ming urush va mehnat fronti faxriysi, yolg'iz va ijtimoiy ko'makka muhtoj qariyalarning yashash sharoitlari yaxshilandi, kommunal xizmatlar bo'yicha 2,6 mlrd so'mlik kompensatsiya to'landi. 205 mingdan ziyod faxriy tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Bundan tashqari pensiyaga chiqqan xodimlarga moddiy yordamlar ajratildi.

Fevral oyida DTT kafedrasini prof. Z.A.Nazarova, kafedra mudiri, f.f.d. Yo.S.Kariyeva, kafedra professor o'qituvchilari va talabalar turar joyidagi 31-40 xonalarda yashovchi talabalar bilan "Tabiat noz-ne'matlarini asrab-avaylash" mavzusida suhbat o'tkazildi.

Muqaddas tuproq, musaffo havo, zilol suv, o'z nurini saxiylik ila sochayotgan quyosh – barcha-barchasi tabiatning betakror mo'jizasi. Inson tug'iliboq ushbu ne'matlardan bahramand bo'ladi. Shuning uchun ham uni ona tabiat deb ataymiz.

Jannatmonand yurtimizda ham tabiatni asrash yo'lida salmoqli ishlar qilinmoqda. O'tgan yillar ichida mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning qonunchilik bazasi shakllantirildi. «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida», «Yer osti boyliklari to'g'risida», «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida», «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida», «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunlar shular sirasiga kiradi.



Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-mayda qabul qilingan «2013 – 2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha harakatlar dasturi to‘g‘risida»gi qarori asosida sanoat korxonalarida chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, oqovalarni tozalash jarayonini takomillashtirish, avtotransportlarni sof yoqilg‘iga o‘tkazish borasida o‘ziga xos loyihalar amalga oshirilayotir.



Mart oyida DTT kafedraasi assistenti N.X.Aripova, kafedra professor o‘qituvchilari va talabalar turar joyidagi 31-40 xonalarda yashovchi talabalar bilan “Kiyinish madaniyati”, “Milliy libos va milliy ruhiyat” mavzusida suhbat o‘tkazildi.

Kiyinish madaniyati – insonning tashqi ko‘rinishi, ma’naviy dunyosi, estetikasi, axloqiy sifatleri va salohiyatini ochib beradi. Kiyinish madaniyatiga bo‘lgan qarash insonning go‘zallik, nafosat, odob borasidagi ko‘z qarashlarini ifoda etadigan omil hamdir. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki bugungi jadal rivojlanib borayotgan global davrda kiyimlar ham, kiyinishga bo‘lgan e’tibor va talab ham o‘zgarib bormoqda.

Yoshlarimizning moda ketidan ko'r-ko'rona quvishlari va yangi chiqqan tor, ochiq, kalta liboslarni moda deya e'tirof etishlari va bu turdagi kiyimlar albatta kiyilishi kerak deb fikrlashlari ayni haqiqat. Bu kiyimlarning o'zbekona madaniyatimizga mentalitetimizga xos emasligi haqida esa o'ylab ko'rishmayapti. Afsuski men bugungi yigit – qizlarimizning kiyinish madaniyati haqida ijobiy fikr bildiri olmayman. Chunki bugun ko'cha kuyda, evropaga taqlid qilib kiyinayotgan yoshlarimizda milliyligimiz aks etgan kiyimlar toboro kamayib bormoqda. Aslida kiyinish madaniyati xam o'zbekona madaniyatimizning ajralmas qismidir. Bu masalaning jiddiy tomoni shundaki yuzaga kelayotgan ushbu muammo bugungi kunning muxim dolzarb mavzusiga aylandi.



Eng avvalo ota ona o'z farzandini kiyinishiga e'tibor berishi, doimiy nazorat qilishi zarur. Shundagina yuqorida keltirilgan muammolar va salbiy fikrlar yuzaga kelmaydi. Istardimki qizlarimiz ibo hayoda barchaga namuna bo'lib, yigitlarimiz haqiqiy o'zbek o'g'lioni sifatida qolishsa va kiyinish madaniyati xam milliyligimizni o'zida mujassam etgan eng muhim omil ekanligini yodda saqlashsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Mart oyida kafedra assistenti f.f.d. I.Sh.Sharipova, kafedra professor o'qituvchilari va talabalar turar joyidagi 31-40 xonalarda yashovchi talabalar bilan "21-mart –Navro'z bayrami munosabati" mavzusida o'tkazilib, Navro'z bayramini o'tkazish o'troq dehqonlarda rasm bo'lgan, keyinchalik ular orqali yarim o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlarning ham urf-odatlariga aylangan. Asrlar o'tishi bilan turli xalqlarda Navro'z bayramini o'tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga moslashgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Navro'zni bayram qilish axmaniyalar davridan boshlangan va O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston xalqlarida eng katta bayramlardan biri hisoblanganligi haqida gapirildi.



Navro'zning birinchi kuni qishloq joylarida bolalar to'p-to'p bo'lib xonadonlar eshigi oldida Navro'zga bag'ishlangan qo'shiq aytishgan. Xonadon egasi ularni sovg'a-salom va eguliklar bilan siylagan. Bolalar eguliklarning bir qismini qishloqdagi beva-bechoralarga ulashishgan. Bu udum hozir ham Samarqand va Jizzax viloyatlarining ayrim qishloqlarida saqlangan. Navro'z yangi yil bayramigina bo'lib qolmay, mehnat bayrami ham hisoblangan.

April oyidakafedra dotsenti N.S. Fayzullaeva, kafedra professor-o'qituvchilari va talabalar turar joyidagi 31-40 xonalarda yashovchi talabalar bilan "Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish" mavzusida suhbat o'tkazildi. 2017 yilda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik darajasi 2016 yilgacha nisbatan 9698 taga yoki 14 foizga kamaygan b o'lsada, respublika bo'yicha 23 mingga yaqin yoshlar tomonidan jinoyatlar sodir etilganligi, shundan 759 nafari yoki 3 foizi kasb-hunar kollejlari va akademik-litseylar o'quvchilari, 273 tasi yoki 1,1 foizi talabalar, 8935 tasi yoki 36 foizi ishlamaydigan, jamiyatda faol bo'lmagan yoshlarni tashkil etayotganligi achinarli hol va bu borada olib borilayotgan ishlarimizning natijasi emasligini ko'rsatadi. Jamiyatdagi barcha nojo'ya holatlar, jumladan, oiladagi notinchlik, ta'lim muassasalari ishidagi va boshqa sohalardagi kamchiliklar yoshlarning normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xuquqbuzarlik sodir etgan yoshlarning 62,2 foizi bo'sh vaqtlarini ko'chada o'tkazishadi.





Ota-onalarning bolalar tarbiyasiga mas'ulligi O'zbekiston Konstitutsiyasining 64-moddasida qayd etilgan. Unga ko'ra ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Biroq voyaga etmaganlar va yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olishda ota-onalarning ishtiroki tahlil qilinganda, ota-onalarning 42,8 foizi farzandlari tarbiyasiga e'tiborsiz ekanligi, 48,7 foizi bolalarini etarli darajada tarbiyalay olmasliklari aniqlandi. Yuqoridagi holatlar jamiyatda ota-onalarning rolini oshirish bilan birga yoshlarimizning huquqiy madaniyati va huquqiy qarashlarini yuksaltirishga hamda qonunga itoatkorlik xulqini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy va tashkiliy xususiyatga ega bo'lgan keskin choralar ko'rish, shuningdek, xuquqbuzarliklarning oldini olishda fuqarolarning ishtirokini ta'minlovchi qonun normalarini shakllantirish zaruratini ko'rsatadi.

2018 yil 12 aprel DTT kafedrasi mudiri prof. Yo.S.Karieva, prof. Z.A.Nazarova, kafedrani prof, o'qituvchilari va talabalar turar joyidagi 31-40 xonalarda yashovchi talabalar bilan "Kafedra kuni" va kafedraning hayoti va ilmiy faoliyati haqida suhbat o'tkazildi. Dori turlari texnologiyasi kafedrasida o'qitilayotgan fanlar farmatsevtik amaliyotni y o'naltiruvchi fanlardan hisoblanib, asosiy ixtisoslik fanidir. Kafedra 1934-yili Toshkent Tibbiyot instituti hududida "Dori turlari va galen preparatlari texnologiyasi" kafedrasi nomi bilan tashkil topgan. Uning tashkil topishida ToshDavTI qoshidagi dorixona mudiri K.I.Rubin va xodimlari M.R.Frimerman va Ya.D. Kutiklar astoydil tashabbus ko'rsatgan. 1941-yilda kafedra kengayib, uni farmatsevtika fanlari doktori, professor Z.M.Umanskiy boshqardi. Kafedraning professor o'qituvchilari tarkibi 7 kishidan iborat b o'ldi.

2014-yil iyul oyidan boshlab kafedrani f.f.d. dotsent Yo.S.Karieva boshqarib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib kafedra malakali, tajribali, ilmiy pedagogik xodimlarga ega b o'ldi.



May oyida DTT kafedrasida katta o'qituvchisi F.A.Umarova, kafedrani prof, o'qituvchilari va talabalar turar joyidagi 31-40 xonalarda yashovchi talabalar bilan 9 –May xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab "Inson qadri va uning xotirasi muqaddas" mavzusida suhbat o'tkazildi. Suhbatda kafedra xodimlari va talabalar qatnashdilar. Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan minglab vatandoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli jangohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan enggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o'zligini yo'qotmagan, imoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatish tom ma'noda milliy qadriyatga aylandi. Urush arafasida mamlakatimizda 6,5 millionga yaqin aholi yashagan bo'lsa, shundan 1,5 millioni urushda bevosita ishtirok etgan va bu dahshatli urushda qariyb 500 ming yurtdoshimiz nobud bo'ldi. Har qaysi xalqning odamiyligi va ma'naviy qadriyatlari, mehr-oqibat va oliyanoblighi ana shunday unutilmas damlarda yaqqol namoyon bo'ladi, – dedi muhtaram Prezidentimiz Xotira va qadrlash kuni munosabi bilan jurnalistlarga bergan intervyusida. Ayniqsa, ota-bobolarimiz qandaydir tepalik, qandaydir ulug' dohiy uchun emas, avvalo o'z yurti, otasonasi, sevgan yori va farzandlari uchun jon berganligi xususidagi fikrlaridan juda ta'sirlandim.



Iyun oyida DTT kafedrası assistenti A.S.Normurodov, kafedrani prof, o'qıtuvchilari va talabalar turar joyidagi 31-40 xonalarda yashovchi talabalar bilan Diniy ekstremistik, terroristik va fundamentalistik mafkura va qarashlarni, millatlararo va diniy ziddiyatlarni targ'ib qiluvchi oqimlarning asosiy maqsadini fosh etishga qaratilgan mavzuda davra suhbatı o'tkazildi. O'zbekiston azaldan turli millatga mansub, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o'lka bo'lib kelgan.





Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining soni 31 mln.dan oshgan bo'lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e'tiqod qiladi. So'nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "hujralar" tashkil etish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, internet orqali targ'ibot o'tkazish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Ayniqsa, internet tarmog'ida o'zini "Islom davlati" (ISHID), "Jabhat al-Nusra" deb atab olgan terroristik tashkilotlar go'yoki islom ravnaqi yo'lida kurashayotgan "mujohid birodarlar guruhi" ekani haqidagi targ'ibot-tashviqot keng ko'lamda olib borilayotgani, buning oqibatida dunyoning ko'plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar "hijrat" qilish va "jihod"da ishtirok etib da'vosida Suriya va Iroq hududiga borib, ushbu guruh safiga borib qo'shilayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Aqidaparastlar yoshlarni avrab, islom diyori bo'lgan, azon aytiladigan, juma va hayit namozlari o'qiladigan, umuman, islomning besh arkonlari emin-erkin ado etilib, musulmonchilik amalda bo'lgan va fuqarolar tinchlik-xotirjamlikda hayot kechirayotgan Vatanini tark etishga targ'ib qilmoqda. Ekstremistik oqimlar o'z safiga yangi shaxslarni jalb etishda internetdagi ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Ba'zi yoshlarimiz "Internet" orqali o'zini "Islom davlati" deb atayotgan terrorchi tashkilot aqidaparast guruhlar ta'siriga tushib qolishi, "Obid qori", "Abduvali qori", "Rafiq qori" kabi mutaassib shaxslarning ma'ruzalarini diskda yoki qo'l telefoni xotirasida saqlab, tinglab yurish holatlari mavjud. Shu sababdan yurtimizga g'alamislik qilishga harakat qiluvchi, go'yoki dindorlarga tayziq qilinmoqda degan tuhmat tarqatayotgan kimsalarning tegirmoniga suv qo'yib qo'ymasligimiz ham lozim.